



journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

## A STUDY OF THE GEOGRAPHICAL FEATURES OF TOURISM DEVELOPMENT IN SOUTHWESTERN UZBEKISTAN BASED ON SOCIAL SURVEYS

**Odil Lapasovich Mukhamedov**

Associate Professor

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

E-mail: [muxamedovodil@gmail.com](mailto:muxamedovodil@gmail.com)

**Maruf Rustamovich Usmanov**

Associate Professor

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

E-mail: [usmaruf1974@gmail.com](mailto:usmaruf1974@gmail.com)

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** respondents, surveys, representativeness, travelers, domestic tourism, regional economy

**Received:** 23.05.24

**Accepted:** 25.05.24

**Published:** 27.05.24

**Abstract:** This article examines the geographical features of tourism development based on social surveys. The influence of the level of socio-economic development of the regions on the tourist infrastructure is analyzed based on the opinions of the respondents and conclusions are drawn based on them.

### JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKİSTONDA TURİZMNI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK XUSUSİYATLARINI İJTIMOİY SO'ROVNOMALAR ASOSIDA TADQIQ ETISH

**Odil Lapasovich Muxamedov**

Dotsent

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

E-mail: [muxamedovodil@gmail.com](mailto:muxamedovodil@gmail.com)

**Maruf Rustamovich Usmanov**

Dotsent

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

E-mail: [usmaruf1974@gmail.com](mailto:usmaruf1974@gmail.com)

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** respondentlar, reprezentativlik, sayohatchilar, ichki turizm, mintaqaviy iqtisodiyot

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada turizmni rivojlantirishning geografik xususiyatlari ijtimoiy so'rovnomalar asosida tadqiq etilgan.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi turizm infratuzilmasiga ta'siri respondentlarning fikrlari asosida tahlil qilingan va ular asosida xulosalar keltirilgan.

## ИССЛЕДОВАНИЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ЮГО-ЗАПАДНОМ УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ СОЦИАЛЬНЫХ ОПРОСОВ

**Одил Лапасович Мухамедов**

Доцент

Самарканский Государственный Университет имени Шарафа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

E-mail:[muxamedovodil@gmail.com](mailto:muxamedovodil@gmail.com)

**Маруф Рустамович Усманов**

Доцент

Самарканский Государственный Университет имени Шарафа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

E-mail: [usmaruf1974@gmail.com](mailto:usmaruf1974@gmail.com)

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** респонденты, опрос, путешественники, внутренний туризм, региональная экономика

**Аннотация:** В данной статье исследованы географические особенности развития туризма на основе социальных опросов. Влияние уровня социально-экономического развития регионов на туристскую инфраструктуру проанализировано на основе мнений респондентов и на их основе сделаны выводы

### KIRISH

Ijtimoiy tadqiqotlarda, xususan aholining yashash sharoiti va turmush tarzi, unga turli xizmat ko'rsatishning real holati, ijtimoiy muammolarni tadqiq etish hamda haqqoniy baholashda anketa, ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazishning ahamiyati katta. Eng aniq va to'liq mazmunga ega tadqiqot natijalari ijtimoiy so'rovnomalar orqali amalga oshiriladi. Bunda o'rganilayotgan jarayonning rivojlanish holati va unga ta'sir etuvchi omillar to'g'ridan-to'g'ri ushbu muhitda faoliyat ko'rsatayotgan aholi yoki xodimlar bilan jonli muloqat orqali amalga oshirilishi xarakterli hisoblanadi. Zamon talabiga mos ravishda ishni tashkil etish, korxona va tashkilotlar faoliyatiga oydinlik kiritish, yutuq va kamchiliklariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, migrasiya, mehnat bozori faoliyati kabi masalalar o'rganilishi talab etiladi. Bunda statistik ma'lumotlarga ko'ra jonli so'rov, bevosita kishilarining o'zлari bilan bo'lgan muloqot nihoyatda samarali va to'g'ri natijalar beradi. Chunonchi, korxonalarining istiqbolli rejalar, uni amalga oshirishdagi imkoniyat va to'siqlar, yutuq va kamchiliklari, xodimlarning layoqati, moyilligini aniqlashda anketa usuli tadbiq etiladi [4].

So‘nggi yillarda telekommunikasiyalar, telegramm va internet tarmoqlarining rivojlanib borayotganligi onlayn so‘rovnomalar o‘tkazish imkoniyatini bermoqda. Jumladan Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning geografik xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish maqsadida aynan telegramm orqali sosiologik so‘rovnomalar o‘tkazildi.

### ASOSIY QISM

So‘rovnoma respondentlarga quyidagi mazmundagi savollar bilan murojaat etildi. Sosiologik so‘rovnoma “*Sayohat qilishni hohlaysizmi?*” degan savolga so‘rovnoma ishtirok etayotgan 11 ta ma’muriy hududiy birlikdan Samarqand (2,5 %) va Qashqadaryo (1,5 %) viloyatlaridagi respondentlarda “Yo‘q” deb javob bergen variantlar bor. Qolgan viloyatlardagi ishtirokchilar 100 % sayohatni hohlayotganliklari kuzatiladi. Sayohatga ko‘pchilik holatlarda shahar aholisining hohishi yuqori bo‘ladi. Aynan yuqorida qayd etilgan sayohat qilish istagi yo‘q bo‘lgan oz ulushli viloyatlarda urbanizasiya darajasining nisbatan pastligi, o‘z hududlarida turistik va rekreasjon obyektlarning mavjudligi va kundalik hayotda yonma-yon turishligi sabab bo‘lishi mumkin.

“*Siz quyidagi qaysi shaharlarga sayohat qilishni hohlaysiz?*” deb nomlangan savolga Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi respondentlarning 50 foizi Samarqand shahriga va 50 foizi Termiz shahriga sayohat qilishliklarini bildirishgan. Bunda o‘zidan uzoq, tabiat, madaniyati, arxitekturasi, tarixiy va madaniy yodgorliklarining o‘zgachaligi ularni chorlaydi. Andijon viloyatidagi respondentlar Samarqand (50%), Buxoro (25%), Qarshi (12,5%) va Termiz (12,5%) shaharlariga sayohat qilish istagi borligini bildirishgan. Jumladan, Farg‘ona vodiysidan O‘zbekistonning voha-vodiylari har jihatdan farq qilishi, mazkur mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar, etnografik udum-an’analarning o‘zgachaligi Andijonlik respondentlar uchun qiziqarli sanaladi.

Buxoro viloyatidagi respondentlar Samarqand (60%) va Buxoro (40%) shaharlariga sayohat qilishliklarini bildirishgan. Bunda ro‘yi zaminning sayqali sanalmish Samarqand shahri o‘zining tarixiy - madaniy yodgorliklari, gostronomiyasi, yangi urbanistik ko‘ngilochar maskanlarning o‘ziga xosligi sabab bo‘lishi mumkin. Jizzax viloyatidagi respondentlar Samarqand (50%) va Buxoro (50%) shaharlariga sayohat qilish istagi borligini bildirishgan. Jizzax shahridagi turistik-rekreasion obyektlardan Samarqand va Buxoro shaharlaridagi turistik obyektlarning o‘ziga xos arxitekturasi, qadimiyligi va turlanganligi, o‘zgacha

## 1-Jadval

Sayohat qilishni xohlaysizmi? Siz quyidagi qaysi shaharlarga sayohat qilishni hohlaysiz? (%)

|                                      | Jinsi |      | <b>Sayohat qilishni xohlaysizmi?</b> | <b>Siz quyidagi qaysi shaharlarga sayohat qilishni hohlaysiz?</b> |       |      |      |           |        |        |        |        |          |        |                              |                   |
|--------------------------------------|-------|------|--------------------------------------|---|-------|------|------|-----------|--------|--------|--------|--------|----------|--------|------------------------------|-------------------|
|                                      |       |      |                                      | Ayol  | Erkak | Ha   | Yo‘q | Samarqand | Buxoro | Qarshi | Termiz | Navoiy | Toshkent | Xorazm | Yuqoridagilarning barchasiga | Chet elga sayohat |
| <b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b> | 50,0  | 50,0 | 100                                  | 0   | 50,0  | 0    | 0    | 50,0      | 0      | 0      | 0      | 0      | 0        | 0      | 0                            | 0                 |
| <b>Andijon</b>                       | 12,5  | 87,5 | 100                                  | 0   | 50,0  | 25,0 | 12,5 | 12,5      | 0      | 0      | 0      | 0      | 0        | 0      | 0                            | 0                 |
| <b>Buxoro</b>                        | 0     | 100  | 100                                  | 0   | 60,0  | 40,0 | 0    | 0         | 0      | 0      | 0      | 0      | 0        | 0      | 0                            | 0                 |
| <b>Jizzax</b>                        | 100   | 0    | 100                                  | 0   | 50,0  | 50,0 | 0    | 0         | 0      | 0      | 0      | 0      | 0        | 0      | 0                            | 0                 |
| <b>Navoiy</b>                        | 50,0  | 50,0 | 100                                  | 0   | 0     | 50,0 | 0    | 50,0      | 0      | 0      | 0      | 0      | 0        | 0      | 0                            | 0                 |
| <b>Namangan</b>                      | 0     | 100  | 100                                  | 0   | 0     | 0    | 0    | 0         | 0      | 0      | 0      | 0      | 0        | 0      | 0                            | 100               |
| <b>Samarqand</b>                     | 31,0  | 69,0 | 97,5                                 | 2,5   | 13,5  | 32,5 | 11,0 | 27        | 2,5    | 2,5    | 0      | 5,5    | 5,5      |        |                              |                   |
| <b>Surxondaryo</b>                   | 38,0  | 62,0 | 97,0                                 | 3,0   | 67,0  | 15,5 | 2,1  | 10,3      | 2,1    | 1      | 1      | 1      | 0        | 0      | 0                            | 0                 |
| <b>Toshkent</b>                      | 50,0  | 50,0 | 100                                  | 0   | 16,5  | 67,0 | 0    | 0         | 0      | 0      | 0      | 0      | 16,5     | 0      |                              |                   |
| <b>Xorazm</b>                        | 100   | 0    | 100                                  | 0   | 100   | 0    | 0    | 0         | 0      | 0      | 0      | 0      | 0        | 0      | 0                            | 0                 |
| <b>Qashqadaryo</b>                   | 41,0  | 59,0 | 98,5                                 | 1,5   | 45,0  | 29,0 | 9,0  | 4,1       | 1,5    | 4,2    | 1,5    | 1,5    | 4,2      |        |                              |                   |
|                                      |       |      |                                      |   |       |      |      |           |        |        |        |        |          |        |                              |                   |

etnografik madaniyati kabilarning alohida ajralib turishi mahalliy turistlarga ma’naviy ozuqa beradi. Navoiy viloyatida so‘rovnoma ishtirok etganlar Buxoro (50%) va Termiz (50%) shaharlariga sayohat qilish istagi borligini bildirishgan. Buxoro shahri Navoiyliklarning ajdodlari yashagan maskan sifatida chorlasa, Termiz shahri respublikamizning periferiya, shuningdek janubiy hudud ekanligi, o‘ziga xos etnografiyasi, madaniyati, tabiatni va gostronomiyasi sayohatchilarni maftun etadi. Bunday jozibadorlik Navoiy viloyatida takrorlanmaydi.

Samarqand viloyatidagi respondentlar Samarqand (13,5 %), Buxoro (32,5 %), Qarshi (11%), Termiz (27%), Navoiy (2,5 %) va Toshkent (2,5) shaharlariga sayohat qilishliklarini bildirishgan. Samarqand viloyati respublikamiz markazida va transport tugunida joylashganligi sayohat qilish qulayligini ta’minlab beradi. Mana shu xususiyatlar barcha hududlarga borish imkoniyatini qulaylashtiradi.

Surxondaryo viloyatidagi respondentlar Samarqand (67%), Buxoro (15,6%), Qarshi (2,1%), Termiz (10,3%), Navoiy (2,1%), Toshkent (1,0%), Xiva (1,0%) shaharlariga sayohat qilishni bildirishgan. Respondentlar eng ko‘p Samarqand va Buxoro shahalarini belgilashdi. Albatta respublikaning chekka janubiy hududida joylashgan Surxondaryo viloyati aholisi uchun markaziy hududlarga sayohat qilish istagi yuqori bo‘lishi tabiiy. Bunda mazkur hududlardagi infratuzilma, zamonaviy va tarixiy arxitekturaning uyg‘unligi, aholisining ko‘p millatligi, zamonaviy oliy ta’lim muassasalarining ko‘pligi va turlanganligi, ko‘ngilochar maskanlarning mavjudligi kabilar sabab bo‘lishi mumkin.

Toshkent viloyatidagi so‘rovnoma ishtirok etayotgan ishtirokchilar Buxoro (67 %) va Samarqand (16,5 %) shaharlariga sayohat qilishlarini bildirishgan. Albatta urbanizasiyalashgan respublika poytaxti Toshkent shahri bilan yonma-yon, hamohang joylashganligi mahalliy sayyoohlarning qadimiy shaharlarga borish istagi yuqori bo‘lishligi tabiiy hol. Qashqadaryo viloyatidagi respondentlar Samarqand (45%), Buxoro (29%), Qarshi (9%), Termiz (4,1%), Navoiy (1,5%), Toshkent (4,2%) va Xiva (1,5) shaharlariga sayohat qilish istagi borligini bildirishgan. Qashqadaryo viloyati aholisining xo‘jalikdagi bandligi va turlanmaganligi sayohat qilish istagi yuqoriligiga sabab bo‘ladi.

“*Siz Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy viloyatlaridagi turistik obyektlarni qay darajada bilasiz?*” degan savolga Qoraqalpog‘iston Respublikasi (100%) va Namangan (100%) viloyatidagi respondentlar “unchalik yaxshi bilmayman” deb javob berishgan. Mazkur mintaqalar Janubi-G‘arbiy O‘zbekistonga nisbatan ancha olisda joylashganligi sabab bo‘lishi mumkin. Xorazm viloyati respondentlari (100 %) yaxshi bilaman deb javob berishgan. Bundan ko‘rinib turibdiki hamma tomoni cho‘ldan iborat bo‘lgan Xorazm viloyati aholisi uchun boshqa viloyatlar tabiatni, vodiylari, daryolari, tog‘larini, shuningdek o‘ziga xos tarixiy-madaniy arxitekturasini ko‘rish ishtiyoyqining kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

“Siz bir yilda necha marta sayohatga chiqasiz?” degan savolga Xorazm va Buxoro viloyatidagi respondentlar bir marta degan javob to‘xtalishgan (100 %). Toshkent viloyatida 1 marta (33,3 %), 2 marta (33,3 %) va 3 va undan ortiq (33,4 %) sayohatga chiqishadi. Namangan viloyatidagi respondentlar umuman chiqmaganman (100 %) degan javobga to‘xtalishgan. Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatidagi so‘rovnama ishtirokchilari 1; 2; 3 va undan ortiq sayohatga chiqishligini ma’lum qilgan.

“Siz sayohatga yakka holda chiqishni hohlaysizmi yoki oilaviy?” degan savolga Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi so‘rovnama ishtirokchilari “yakka” (50 %) va “yaqin qarindoshlar bilan” (50 %) javobiga to‘xtalishgan bo‘lsa, Namangan viloyatida 100 % “yaqin qarindoshlari bilan”, Xorazm viloyatida 100 % “oilaviy” degan javobga to‘xtalishgan. Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi respondentlar yuqoridagilarga mos ravishda “yakka” (3; 11,5 va 4,5 %), “oilaviy” (54,0; 55,5 va 53,5 %), “do‘stlar bilan” (38; 30 va 40,5 %), “yaqin qarindoshlar bilan” (5,0; 3,0 va 1,5 %) sayohatga chiqishliklarini bildirishgan. Bundan ko‘rinib turibdiki respondentlarning ko‘pchiligi “oilaviy” va “do‘stlar bilan” sayohatga chiqishni istashadi.

“Sayohat vaqtida Siz qanday turistik obyektlarni ko‘rishni istaysiz?” degan savolga Namanganlik respondentlar 100 % “arxeologik obyektlarga” degan javobga to‘xtalishgan.

2-jadval

|  | Siz Samarqand,<br>Buxoro,<br>Qashqadaryo,<br>Surxondaryo,<br>Navoiy<br>viloyatlaridagi<br>turistik obyektni<br>qay darajada<br>bilasiz? | Siz bir yilda necha marta<br>sayohatga chiqasiz? |                |                |                          |                                | Siz sayohatga yakka holda<br>chiqishni hohlaysizmi yoki<br>oilaviy? |             |                       |                                    |                | Sayohat vaqtida siz qanday turistik<br>obyektlarni ko‘rishni istaysiz? |           |              |                 |             |
|--|---|--|----------------|----------------|--------------------------|--------------------------------|---|-------------|-----------------------|------------------------------------|----------------|--|-----------|--------------|-----------------|-------------|
|  | Yaxsh<br>i<br>bilam<br>an   | Unchali<br>k yaxshi<br>bilmaym<br>an             | 1<br>mart<br>a | 2<br>mart<br>a | (3 va<br>undan<br>ortiq) | Umuma<br>n<br>chiqmag<br>anman | Yakk<br>a   | oilavi<br>y | do‘stl<br>ar<br>bilan | Yaqin<br>qarindos<br>hlar<br>bilan | Arxeolog<br>ik | arkitektu<br>ra  | dini<br>y | tanishu<br>v | ekoturist<br>ik | hamma<br>si |
| <b>Qoraqalpog‘iston<br/>Respublikasi</b> | 0   | 100  | 50,0           | 50,0           | 0                        | 0                              | 50,0  | 0           | 0                     | 50,0                               | 0              | 0  | 0         | 0            | 0               | 100         |
| <b>Andijon</b>                           | 25,0  | 75,0   | 62,5           | 0              | 25,0                     | 12,5                           | 0   | 62,5        | 25,0                  | 12,5                               | 0              | 25,0   | 12,5      | 0            | 0               | 62,5        |
| <b>Buxoro</b>                            | 40,0  | 60,0   | 100            | 0              | 0                        | 0                              | 0   | 40,0        | 60,0                  | 0                                  | 0              | 0  | 0         | 0            | 20,0            | 80,0        |
| <b>Jizzax</b>                            | 50,0  | 50,0   | 0              | 50,0           | 50,0                     | 0                              | 0   | 50,0        | 50,0                  | 0                                  | 0              | 0  | 0         | 0            | 0               | 100         |
| <b>Navoiy</b>                            | 50,0  | 50,0   | 50,0           | 0              | 50,0                     | 0                              | 0   | 50,0        | 50,0                  | 0                                  | 0              | 0  | 0         | 0            | 0               | 100         |
| <b>Namangan</b>                          | 0   | 100  | 0              | 0              | 0                        | 100                            | 0   | 0           | 0                     | 100                                | 100            | 0  | 0         | 0            | 0               | 0           |
| <b>Samarqand</b>                         | 57,0  | 43,0   | 38,0           | 46,0           | 13,5                     | 2,5                            | 3,0   | 54,0        | 38,0                  | 5,0                                | 13,5           | 3,0  | 5,5       | 0            | 21,5            | 56,5        |
| <b>Surxondaryo</b>                       | 46,5  | 53,5   | 54,5           | 27,0           | 15,5                     | 3,0                            | 11,5  | 55,5        | 30,0                  | 3,0                                | 13,5           | 0  | 9,5       | 4,0          | 14,5            | 58,5        |
| <b>Toshkent</b>                          | 50,0  | 50,0   | 33,3           | 33,3           | 33,4                     | 0                              | 16,7  | 66,6        | 16,7                  | 0                                  | 4,0            | 16,5   | 16,5      | 16,5         | 16,5            | 30,0        |
| <b>Xorazm</b>                            | 100   | 0  | 100            | 0              | 0                        | 0                              | 0   | 100         | 0                     | 0                                  | 0              | 0  | 0         | 0            | 0               | 100         |
| <b>Qashqadaryo</b>                       | 27,5  | 72,5   | 46,5           | 29,0           | 20,0                     | 4,5                            | 4,5   | 53,5        | 40,5                  | 1,5                                | 10,0           | 4,5  | 6,0       | 1,5          | 10,0            | 68,0        |
|  |   |  |                |                |                          |                                |   |             |                       |                                    |                |  |           |              |                 |             |

Buxoro viloyatidagi so‘rovnama ishtirokchilari “ekoturistik obyektlarga” (20 %) va “hammasiga” (80 %) degan javoblarga to‘xtalishgan. Buxoro viloyati tabiatida tog‘lilik uchramasligi, ya’ni so‘lim, bokira hududlarga borish ishtiyobi ortishiga sabab bo‘ladi. Jizzax, Navoiy, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi respondentlar 100 % “barcha obyektlarga” degan javobga to‘xtalishdi. Arxeologik, arxitektura, diniy, tanishuv, ekoturistik va hammasiga degan javoblarga Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida deyarli teng taqsimlangan holda obyektlarni ko‘rishni istashgan.

“*Sayohatga chiqqaningizda transport va infratuzilma obyektlari Sizni qoniqtiradimi?*” savoliga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlaridagi respondentlar 100 % “Ha” degan javobga to‘xtalishgan. Bunda mazkur hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, infrastruktura holati qolgan viloyatlardan nisbatan orqadaligi sabab bo‘lishi mumkin, ya’ni o‘z hududida mavjud bo‘lmagan yoki sust rivojlangan xizmat ko‘rsatishga taqqoslagan holda mazkur javobga to‘xtalishgan. Namangan viloyatidagi so‘rovnama ishtirokchilari 100 % “qoniqtirmaydi” deya javob berishgan. Buxoro (80,0 %) va Toshkent (83,5 %) viloyatlarida “Yo‘q” degan javobga to‘xtalishgan. “O‘zbekiston shahar va tumanlarida turizm xizmatlarining sifatini qanday baholaysiz?” degan savolga Xorazm viloyatidagi respondentlar 100 % “yaxshi” deya javob berishdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 50 % “yaxshi” va 50 % “o‘rtacha” javobiga to‘xtalishgan bo‘lsa, Toshkent viloyatida 17 % “yaxshi”, 83 % “o‘rtacha”, Surxondaryo viloyatida 51,5 % “yaxshi” va 44,5 % “o‘rtacha” deb javob berishgan.

“Yomon” degan variantga Andijon (12,5 %), Qashqadaryo (10,0 %), Surxondaryo (4,0 %) va Samarqand (2,8 %) viloyatlaridagi respondentlar to‘xtashgan. Umuman mazkur savolda “yaxshi” va “o‘rtacha” degan variant ustunlikka ega. Demak bu holatni ijobiy xol deb baholash mumkin.

“*Siz yilning qaysi faslida sayohatga chiqishni hohlaysiz?*” degan savolga Xorazm viloyatidagi respondentlar 100 % “bahor” faslida, Qoraqalpog‘iston

## 3-jadval

|                                      | Sayohatga chiqqaningizda transport va infratuzilma obyektlari sizni qoniqtiradimi? |      | O'zbekiston shahar va tumanlarida turizm xizmatlarining sifatini qanday baholaysiz? Siz yilning qaysi faslida sayohatga chiqishni hohlaysiz? |          |       |           |       |      | Siz yilning qaysi faslida sayohatga chiqishni hohlaysiz? |      | Turistik obyektlar bo'yicha mobil ilovalar zurur deb hisoblaysizmi? |      |      |
|--------------------------------------|--|------|--|----------|-------|-----------|-------|------|--|------|---|------|------|
|                                      | Ha   | Yo'q | Yaxshi   | o'rtacha | yomon | qoniqarli | Bahor | Yoz  | Kuz  | Qish | Farqi yo'q  | Ha   | Yo'q |
| <b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b> | 100  | 0    | 50,0   | 50,0     | 0     | 0         | 50,0  | 50,0 | 0  | 0    | 0   | 100  | 0    |
| <b>Andijon</b>                       | 62,5   | 37,5 | 12,5   | 75,0     | 12,5  | 0         | 37,5  | 37,5 | 25,0   | 0    | 0   | 100  | 0    |
| <b>Buxoro</b>                        | 20,0   | 80,0 | 0  | 100      | 0     | 0         | 60,0  | 40,0 | 0  | 0    | 0   | 100  | 0    |
| <b>Jizzax</b>                        | 100  | 0    | 0  | 100      | 0     | 0         | 50,0  | 0    | 0  | 0    | 50,0  | 100  | 0    |
| <b>Navoiy</b>                        | 100  | 0    | 0  | 100      | 0     | 0         | 0     | 0    | 0  | 0    | 100   | 100  | 0    |
| <b>Namangan</b>                      | 0  | 100  | 0  | 100      | 0     | 0         | 0     | 0    | 0  | 0    | 100   | 100  | 0    |
| <b>Samarqand</b>                     | 59,5   | 40,5 | 32,5   | 62,0     | 2,8   | 2,7       | 67,5  | 2,5  | 13,5   | 2,5  | 14  | 97,5 | 2,5  |
| <b>Surxondaryo</b>                   | 78,5   | 21,5 | 51,5   | 44,5     | 4,0   | 0         | 39,0  | 30,0 | 12,5   | 2    | 16,5  | 95,0 | 5,0  |
| <b>Toshkent</b>                      | 16,5   | 83,5 | 17,0   | 83,0     | 0     | 0         | 50,0  | 16,5 | 0  | 16,5 | 17,0  | 100  | 0    |
| <b>Xorazm</b>                        | 100  | 0    | 100  | 0        | 0     | 0         | 100   | 0    | 0  | 0    | 0   | 100  | 0    |
| <b>Qashqadaryo</b>                   | 66,5   | 33,5 | 35,0   | 55,0     | 10,0  | 0         | 40,5  | 20,0 | 13,5   | 3,0  | 23,0  | 95,5 | 4,5  |
|                                      |  |      |  |          |       |           |       |      |  |      |   |      |      |

Respublikasida 50 % “bahor” va 50 % “yoz” faslida sayohatga chiqishni hohlashini bildirishgan. Mazkur hududlar “cho‘llilik” xususiyatiga ega bo‘lib aynan bahor va yoz oylarini maqbul bilishadi. Jumladan, tog‘li hududlarning bahor va yoz oylari rekreasjon ahamiyati, jozibadorligi yanada oshadi va cho‘l hududidagi aholini o‘ziga chorlaydi. “Qish” faslida javobiga Toshkent (16,5 %), Qashqadaryo (3,0 %) va Samarqand (2,5 %), viloyatidagi respondentlar nisbatan ko‘proq to‘xtalishgan. Mazkur viloyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi tarkibida rusiy zabon xalqlarining nisbatan ulushi balandligi, aholisining mashg‘uloti va bandligiga mos ravishda tog‘li hududlardagi rekreasjon maskanlarga borish maylining yuqoriligi sabab bo‘lishi mumkin.

“Turistik obyektlar bo‘yicha mobil ilovalar zarur deb hisoblaysizmi?” degan savolga deyarli barcha viloyatlardagi respondentlar 100 % “Ha” deya javob berishgan bo‘lsa, faqatgina Surxondaryo (5,0 %), Qashqadaryo (4,5 %) va Samarqand (2,5 %) viloyatlaridagi so‘rovnoma ishtirokchilari “Yo‘q” degan variantga to‘xtalishgan. Demak, tahlillardan ma’lum bo‘lishicha turistik obyektlar bo‘yicha mobil ilovalar yaratilishi zarur. Bu turistlar uchun har tomonlama qulayliklar yaratadi va dam olish vaqtini rejalashtirishga imkoniyatlar yaratadi.

## XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki sosiologik so‘rovnoma orqali sayohatchilarining hohish-istagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlil qilinganligi jarayonning haqqoniyligini ta‘minlab berdi. Ayni shu fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda turistik xizmatlarni to‘g‘ri, asoslangan holda tashkil etish mazkur sohaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda turizm infratuzilmasini samarali tashkil etish katta iqtisodiy samara beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Komilava F.K Xalqaro turizm bozori. O‘quv qo‘llanma T-2011
2. Lapasovich, M. O., Yakubovich, Z. B., Rustamovich, U. M., Nematovich, N. O., & Tolipov, F. (2020). Historical and ethnographic characteristics and socio-spiritual factors of visiting tourism in Uzbekistan. Journal of Critical Reviews, 7(6), 47-50. (<https://www.scopus.com/authid/detail.uri?authorId=57221665481>)
3. Mamatqulov X.M. Xalqaro turizm.-Samarkand, 2012
4. Mirzaev M.A Turizm asoslari o‘quv qo‘llanma T-2011
5. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya. Tanlangan asarlar. T-2013
6. Tuxliev I va boshqalar Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik T-2010
7. Usmonov M. Turizm geografiyasi.(o‘quv qo‘llanma)-Samarqand, 2019